

## BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA MUSIQIY RITMIK HARAKATLAR KOMPONENTLARINI PEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Shodiyeva Oygul

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "San'atshunoslik" kafedrası  
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7439750>

**Annotatsiya.** Maqolaning mazmuni hozirda musiqa sohasida tahsil olayotgan hamda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ritmik harakatlar komponentlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan fikr-mulohazalardan iboratdir. Shuningdek ushbu komponentlarni rivojlantirishda pedagogik yondashuvning o'рни va ahamiyatini ham qiyosiy tahlillar asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa o'qituvchilari, fikr-mulohazalar, ritmik harakatlar, komponentlar, bilimlar, pedagogik yondashuv, qiyosiy tahlil.

## РАЗВИТИЕ КОМПОНЕНТОВ МУЗЫКАЛЬНО-РИТМИЧЕСКИХ ДВИЖЕНИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

**Аннотация.** Содержание статьи составляют научно обоснованные мнения о развитии компонентов ритмических движений у ныне обучающихся в области музыки и будущих учителей музыки. Также на основе сравнительного анализа выделены роль и значение педагогического подхода в развитии этих компонентов.

**Ключевые слова:** учителя музыки, обратная связь, ритмические движения, компоненты, знания, педагогический подход, сравнительный анализ.

## DEVELOPMENT OF COMPONENTS OF MUSICAL-RHYTHMIC MOVEMENTS IN FUTURE MUSIC TEACHERS BASED ON A PEDAGOGICAL APPROACH

**Abstract.** The content of the article is scientifically substantiated opinions on the development of the components of rhythmic movements among current students in the field of music and future music teachers. Also, on the basis of a comparative analysis, the role and significance of the pedagogical approach in the development of these components are highlighted.

**Keywords:** music teachers, feedback, rhythmic movements, components, knowledge, pedagogical approach, comparative analysis.

**Kirish:** Ritmika - kuylanadigan yoki tinglanadigan kuyning sur'ati, usulini o'rgatadi. Ritmsiz kuy bo'lmaydi. Shuning uchun biror bir kuy noto'g'ri ritmda ijro etilsa, musiqiy asar o'z shaklini yo'qotadi. Darslarda amaliy mashqlar jarayonida musiqiy asarga xos ritmik harakatlar bajariladi. (raqs elementlari)

Musiqiy ritmik tarbiya tizimini 1856-1950-yillarda yashab ijod etgan Shvetsariya pedagogi – Emil Jak-Dolkroz yaratgan Jeneva konservatoriyasida shug'ullanib turib, Dalkroz ritmik harakatlarni aniq ritmik chiziqalar orqali barcha talabalar ham bajara olmasligining guvohi bo'ladi. Ritm bilan bog'liqligini Salfedjio darslarida qo'llay boshladi. Shu tariqa ritmik gimnastikani joriy etdi. Unda barcha harakatlar musiqa sozlari orqali ifoda etildi.

Ritmik vazifalar murakkablashtirilib, tarbiyaviy rolni bajara boshladi. Ular talabalarda diqqatni, aniqlikni, maqsadga intilish, kollektivni baravar harakatlanishga erishildi.

Dolkroz ritmik tarbiya uslubini qator kitoblarida ishlab chiqqan. 1910-yil Drezden yonidagi Xellerau institutida o'sha yerda yashovchi ishchilarning farzandlariga dars beradi. Keyinchalik, xuddi shunday institut yaratadi.

Bunday institutlar Amerikada, Yaponiyada ochiladi. Rossiyada Dolkroz ishini o'quvchisi N.G.Aleksandrova 1909-yildan muntazam ravishda mashg'ulotlarda va kurslarda, musiqiy maktab va to'garaklarda ritmika mashg'ulotini davom ettiradi. Shu tariqa Rossiyada ham Institutlar xoreografiya bilim yurtlari ochiladi.

Musiqali ritmik harakatlar bajarish musiqiy pedagogik jarayonning asosiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi va ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

Bizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitiladigan musiqa mashg'ulotlari hamda umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflari musiqa madaniyati darslarida musiqiy faoliyatining musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, cholg'u sozlari chalish, musiqali ritmik harakatlar bajarish va musiqa savodi kabi faoliyat turlaridan foydalanish ta'lim standarti hamda o'quv dasturlarida ko'rsatilgan.

Musiqa darslari jarayonida musiqaviy ritmik harakatlarni bajarish faoliyati o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, xususan, ritm-usul tuyg'usi va asar badiiyatini harakatlarda ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham muhimdir. Bu, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nihoyatda zarurdir. Chunki yosh bolalarning me'yoriy rivojlanishlarida har qanday harakat turlari muhim rol o'ynaydi.

Bu borada musiqa darslari mazmunida katta imkoniyatlari mavjud va musiqa darslari o'zining mazkur xususiyatlari bilan ham boshqa fanlardan ijobiy farq qiladi.

Musiqa darslari bundan nafaqat istisnodir, balki musiqali harakat turlari o'rganayotgan asarning xarakteri, badiiy obrazlari, ifodaviy va ijro xususiyatlarini chuqur his etish hamda ularni ma'lum darajada ijodkorona ifodalash uchun ham muhimdir. Ana shunda dars boshidan oxirigacha uzilmaydi va mantiqan bir butunlikni tashkil etadi.

Shuni ham aytib o'tish lozimki, o'zbek xalqi milliy raqs san'ati bilan dunyoga dong taratgan. Ammo maktab ta'lim-tarbiyasi tarkibida raqs sabog'i deyarli yo'q darajadiligini nazarda tutsak, musiqa darslari mazmunida milliy raqs usullarini bolalarga yoshlikdan o'rgatish naqadar zarurligi ma'lum bo'ladi. Shu sababli musiqa o'qtuvchisi milliy raqs san'atimizning oddiy harakatlarini bilishi ya'ni ijro eta olishi va darsda qo'llash usullarini puxta egallashi zarurdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yurish, yugurish, sakrashda harakat koordinasiyalari yaxshi shakllangan bo'ladi. Ular o'z tashabbuslari va jon dillari bilan turli ashyolar-koptok, tayoqcha, lentalar yordamida yoki oyoqlarini tappillatish, qo'llarini siltash bilan ham ko'plab tanish musiqalariga harakatlar tuza oladilar.

Musiqa bilan harakatning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda bolalarning ritmni his qilishi faollashadi, ularning harakati musiqaning mazmuniga uyg'unlashadi. Vaqt o'tishi bilan boladagi harakat faoliyatining xususiyati va mazmuni ancha o'zgaradi.

Bolalar shu davrda har xil harakatlar, eng oddiy ermak o'yinlar musiqa bilan harakatlar hamda to'g'ri harakat qilib yurishning ayrim usullari katta o'rin tutadi. Bolalarda harakat faoliyati takomillashib boradi, syujetli rollarga bo'linib o'ynaladigan harakatli o'yinlar shakllanadi.

O'qtuvchining vazifasi bolalar harakat faoliyatini shunday tashkil etishdan iboratki, ular maktab faoliyati davrida rivojlantirishlari zarur bo'ladigan harakatlarning uyg'unlashtirish

ma'nodagi ancha murakkabroq yangi shakllarini tobora faol ravishda egallab, o'zlarida bunday zarur sifatlarini shakllantirishi uchun tinmay mashq qilib borsinlar.

Bolalarning psixik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar mavjudligi tufayli ulami turli harakatlarga o'rgatish vaqtida ko'rgazmalilik katta ahamiyat kasb etadi. Maktab bolalari aniq fikrlash, tafakkur qilish qobiliyati ga ega bo'ladilar.

Harakatlarni tovush orqali, masalan, musiqa, qo'shiq, sanoq o'yinlar yordamida tartibga solinishi mashq xususiyatlarini, uning sur'ati va maromini ifoda etib, bolalarda ko'tarinki ruh paydo qiladi.

Dars mazmunida quyidagicha harakat turlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

a) marsh musiqalari ostida qadam tashlash, yugurish, sakrash;

b) raqs elementlarini bajarish;

v) musiqali o'yinlar o'tkazish;

g) musiqaning xarakterlari (registrari, uchtovushliklari, kuy tovushlarining gorizontaltizimli tuzilmasi, ritm-usul tuzilmalari) ni qo'l va tana harakatlari bilan ifodalash;

d) musiqa o'lchovlarini oddiy taktlash (dirijyorlik qilish) va boshqalar. Bunday harakatlar bolalarda vujudga keladigan aqliy-jismoniy toliqishni tarqatish, bolalarni musiqa darslariga qiziqtirish hamda darsni mazmunan boyitish uchun ham muhimdir.

Milliy musiqamiz madaniyatida raqs sanati muhim o'rin tutadi. Musiqa raqs to'qimasidan joy olib, uning his-tuyg'uga tasir etish tizimini belgilab beradi. Raqs musiqasi o'quvchilarning darsda faolligini oshiradi. Eng muhimi shundaki, raqs va ritmik harakatlar vositasida bolalarda musiqa iqtidori, ayniqsa ritm tuyg'usi faol rivojlanadi va xususan, har bir bolaning musiqa uquv qobiliyatlari darajasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Musiqiy va ritmik harakatlar - bu faol harakat, bu harakatdagi musiqaning tabiatini aks ettiradi. Musiqiy va ritmik harakatlar musiqiy o'yinlar, raqs va mashqlarni o'z ichiga oladi.

Musiqa o'z tabiatiga ko'ra insonlar hayotini, ularning turli voqealarga nisbatan munosabati va ichki kechinmalarini xilma xil tovush bo'yoqlari orqali badiiy obrazlar vositasida tasvirlaydi.

Ma'lumki, bo'lajak musiqa o'qituvchisi musiqaning elementar nazariyasidan olgan bilimlarini amalda qo'llay bilishi uchun albatta uning o'qitish metodikasidan ham muayyan pedagogik qobiliyatga ega bo'lishi shart hisoblanadi.

Musiqa savodi o'rgatishning boshlang'ich davri haqidagi mavzudan to musiqa darslarida notaga qarab qo'shiq kuylashgacha bo'lgan mavzular o'quvchilarning musiqa savodxonligini oshirishga tegishlidir.

Shuningdek, darsda musiqaviy ritmik harakatlar, bolalar cholg'u asboblari chalishga va jo'r bo'lishga o'rgatish, darsda musiqa ijodkorligi faoliyati haqidagi mavzular ham ushbu bobdan o'rin egallagan.

Musiqa darslari o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan maktabdagi boshqa fanlardan ajralib turadi. Musiqa bolalarning aqliy va axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi. Badiiy tarbiya esa uning mantiqiy mazmunidir.

Musiqa darsining ichki tuzilishi musiqa tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir turli namunalardan - vokal-xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqa tahlili va adabiyoti, bolalar cholg'u asboblari chalish, ritmik harakatlar baj

Musiqa bolalar hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish bilan birga ulami nafosat olamiga ohb kiradi. Buning uchun musiqa rahbari, awalo, bolalarni sevishi, bolalar fiziologiyasi, adabiyot,

ona tili fanlari hamda o'z kasbiga oid musiqa o'qitish metodikasi, fortepiano, vokal darsligi, musiqa nazariyasi, solfedjio, ritmika, dirijyorlik kabi fanlarni puxta bilishi lozim.

Musiqa rahbarining bog'cha hayotidagi o'mi beqiyosdir. U o'z kasbiga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega inson bo'lmog'i lozim.

## REFERENCES

1. Estetik tarbiya asoslari. Kushaev N.A. taBriri ostida. - Toshkent, "Ukituvchi" nashriyoti 1988 y.
2. Akbarov I.A. Musika lugati. Toshkent, Gafur Gulom nomli "Adabiyot va san'at" nashriyoti 1985 y.
3. Uzbek musikasi tarixi. Tuzuvchi Solomonova T.E. Toshkent, "o'qituvchi" nashriyoti 1981 y.
4. Vaxromeev V.A. Musikaning elementar nazariyasi. Toshkent, "o'wituVchi" nashriyoti 1980 y.
5. O'quvchilarning musiqiy idrokini o'stirishda ritmik-harakatli o'yinlarning ahamiyati Karimova D.A.